

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.Arslonzoda, O.Maripov	
O'zbekiston Respublikasida davlat arxivlari faoliyatining takomillashib borishi	318
R.Urazova	
Avesto yashtlarida Mitraning sifatleri	325
N.Nizametdinov	
Markaziy Osiyoning Xitoy bilan aloqalari tarixi.....	331
I.Burxonov	
Asomiddin O'rinboev ilmiy merosida Abduxoliq G'ijduvoni tasavvufiy ta'limotiga oid ruq'alarning o'rganilishi.....	338
N.Jumaev	
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan	342
D.Akramov	
Xalq maorifining nazariy asoslari.....	348

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Oripova	
Mustaqillik davri o'zbek lirikasida ritm va ohangdorlik.....	354
I.Baltayeva	
Adabiy vorisiylkning xorij adabiyotida o'rganilishi.....	359
F.Oxunjonova	
XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zullisonaynlik an'anasi takomili (Nodim, Xilvatiy, xayratilar ijodi misolida)	362
D.Uralova	
Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasida ramziy obrazlar uyg'unligi.....	366
S.Begmatova	
Jahon adabiyotida distopik asar turlariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	370
A.Yuldashev	
Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi	374
O.Barziyev	
Farzand taqdiriga murojaat yoki ularga nasihat qilish mavzusiga oid an'anaviy poetik turkumlar	382
D.Sultonova	
Badiiy kriminal asarlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	387
S.Alibekova	
O'tkir Hoshimovning hajviy xarakter yaratish mahorati	392
Sh.Sherg'oziyev	
"Boburnoma" matnida foydalanilgan saj'i mutarrafnig ingliz tili tarjimalarida aks ettirilishi	396
X.To'raxonova	
Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida badiiy tasviriy vositalarning qo'llanilishi	400
D.Hazratkuliyon	
Hozirgi O'zbekiston tojik she'riyatida bediliy uslub an'analariga izdoshlik (Ja'far Muhammad Termiziy she'ri misolida)	403
M.Narziqulov	
Tojik adabiyotida g'azalning mundariyasi va shakli o'zgarishi	410
M.Mirzoyev	
Farzona Xo'jandiy she'rlarida mifologik personajlar badiiy ifodasining xususiyatlari	420

TILSHUNOSLIK

Z.Alimova	
Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida	425
O.Nazirova	

MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK LIRIKASIDA RITM VA OHANGDORLIK

RHYTHM AND MELODY IN UZBEK LYRICS OF THE INDEPENDENCE PERIOD

РИТМ И МЕЛОДИЯ В УЗБЕКСКИХ ЛИРИКАХ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Oripova Gulnozaxon Murodilovna¹¹Oripova Gulnozaxon Murodilovna

– Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Maqolada mustaqillik davri o'zbek lirikasida ritmning ritmik bo'laklar va ritmik vositalar asosida musiqiylik va ohangdorlikni, emotsionallikni yuzaga keltirishi tadqiq etilgan. Tadqiqotda psixologik, struktural-poetik, tavsiflash metodlaridan foydalanildi. Buning natijasida She'riy nutqning o'quvchi qalbiga yetib borishida ritm, qofiya, tovushlar jilosi she'rdagi fikr va tuyg'u bilan uyg'unlashuvi Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva, A'zam O'ktam she'riyati misolida dalillandi. Tadqiqot ilmiy natijalari asosida chiqarilgan xulosalar lirik janrlar poetikasining ilmiy-nazariy jihatdan to'ldirilishiga asos bo'ladi.

Abstract

In the article, the rhythm creates musicality, melodiousness, and emotionality based on rhythmic fragments and rhythmic tools in Uzbek lyrics of the period of independence. Psychological, structural-poetic, descriptive methods were used in the research. As a result of this, the harmony of rhythm, rhyme, and tone of the poetic speech with the thought and feeling of the poem in reaching the heart of the reader was proved by the example of the poetry of Abdulla Oripov, Erkin Vahidov, Halima Khudoyberdieva, Azam Oktam. The conclusions drawn on the basis of the scientific results of the research are the basis for the scientific-theoretical completion of the poetics of lyrical genres.

Аннотация

В статье ритм создает музыкальность, мелодичность и эмоциональность на основе ритмических фрагментов и ритмических средств в узбекской лирике периода независимости. В исследовании использовались психологические, структурно-поэтические, описательные методы. В результате этого на примере стихов Абдуллы Орипова, Эркина Вахидова, Халима Худойбердиева, Азам Октам. Выводы, сделанные на основе научных результатов исследования, являются основой для научно-теоретической доработки поэтики лирических жанров.

Kalit so'zlar: ritm, ritmik bo'lak, ritmik vosita, musiqiylik, ohangdorlik, emotsionallik, vazn, qofiya, fikr va tuyg'u.

Key words: rhythm, rhythmic section, rhythmic device, musicality, melody, emotionality, weight, rhyme, thought and feeling.

Ключевые слова: ритм, ритмическая секция, ритмический прием, музыкальность, мелодия, эмоциональность, вес, рифма, мысль и чувство.

KIRISH

Ritm ibtidoiy sinkretizmning tarixiy asosi bo'lib, "musiqa, raqs va metrik she'rdagi gormonik harakatning sinkretik tarzidagi o'lchamli almashinib kelishiga" [1, 254] asoslangan. V.Jirmunskiy ta'biri bilan aytganda, ritm musiqaning qadimiy shakli bo'lib, poetik so'zdan ilgari yaralgan. Shuning uchun badiiy asarning har qanday shaklidan qadimiydir. Ko'rinadiki, "ritm poetik nutqni tashkil etishning asosiy boshlovchisi bo'lgan" [2, 18]. Bu esa she'riy nutqning hosil bo'lishida ritmning ahamiyatini ko'rsatadi. Ritm she'riy asarda ohangdorlik, kompozitsiya, janr, uslub kabilardan avval paydo bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

She'rshunoslikda ritm tushunchasi "teng o'lchovlilik" degan ma'noni anglatib, bir-biriga mutanosib bo'lgan bo'laklarning bir xil vaqt ichida tartibli takrorlanishidan tug'ilgan ohangdorlikdir. Ritmning vujudga kelishida teng o'lchamli va bir tartibli elementlarning takrorlanishi muhim belgilardan biridir. Ko'rinadiki, adabiyotshunoslikda she'riy nutqdagi muayyan bo'laklarning ma'lum bir vaqt ichida izchil takrorlanib kelishiga ritm deyiladi. Ritm she'riy nutqni tashkillashda asosiy vositalardan biri bo'lib, tuyg'u-kechinmalar, obrazlar harakati va ularning uyg'unligini ta'minlaydi.

Ritm vaznning hosil bo'lishiga zamin yaratgan. Chunki vazn musiqa ritmiga tayangan holda paydo bo'lgan. Professor U.To'ychiyev ritmning umumiy qonunlari asosan uchta – biron me'yorga asoslanish, takrorlanish va uni eshitish mumkinligi haqida fikr bildirib, takror bo'g'inlarda,

ADABIYOTSHUNOSLIK

qofiyalanish tartibida, bandda, soʻz va misrada boʻlishi hamda ritmni hosil qilishda qatnashuvchi bu omillarni bogʻlovchi vosita vazn ekanligini taʼkidlagan [3, 211]. Demak, “ritm sheʼr sistemalari va ularga mansub boʻlgan vaznlarga bogʻliq ravishda uyushtiriladi” [3, 213]. Shuningdek, vazn ritmning barqarorlashgan koʻrinishidir.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Hozirgi davr oʻzbek lirikasida ijodkorlarimiz barmoq va aruz sheʼr tizimidagi vaznlardan mahorat bilan foydalanmoqdalar. Mumtoz adabiyotimiz salafari adabiy anʼanalarini davom ettirgan Erkin Vohidov koʻhna aruz vaznlarida qalam tebratib, aruziy latofatni saqlagan holda gʻazal, muxammas, mustazod kabi janrlarning vazn xususiyatlarini, obrazlar tizimi va mavzu koʻlamini poetik tafakkur yangilanishlari orqali boyitdi. Shoir qalamiga mansub “Sevgi kelsa” gʻazalining matlaʼsi quyidagichadir:

Sev-gi kel-sa/ qad-di yo ham /yosh boʻ-lur,
Sev-gi-siz jo/ no-na hay-kal/ tosh boʻ-lur [4, 45].

- V — - / — V — - / — V — /
- V — - / — V — - / — V — /

Foilotun/ foilotun/ foilun

Gʻazal ramali musaddasi mahzuf vaznidadir. Gʻazalda choʻziq va qisqa hijolarning birikuvidan rukn hosil boʻlgan. Hijolar ritmni hosil qilish uchun ruknga birikkan. Baytdagi har bir misrada uchtadan rukn (foilotun, foilotun, foilun) boʻlib, har bir ruknning ikkinchi hijosi qisqa, qolgan hijolari esa choʻziq holda takrorlangan. Baytning birinchi misrasida 11 ta hijo boʻlib, 8 tasi choʻziq va 3 tasi qisqa, bu holat ikkinchi misrada ham aynan takrorlangan. Baytdagi (- V — -) choʻziq va qisqa hijolar birikuvidan rukn hosil boʻlgan. Bu holat qolgan 7 baytda ham takrorlanadi. Koʻrinadiki, ruknlar choʻziq va qisqa hijolarning muayyan tartibda guruhlanishi va uyushishidan hosil boʻlib, misra va bayt qurilishi bilan bogʻlangan holda oʻziga xos ritmni yaratgan. Sheʼriy nutqning “ritmik boʻlamlari sifatida boʻgʻin (hijo), turoq (rukn), misra va band muhim. Sheʼr misralaridagi ritmik boʻlamlarning maʼlum oʻlchov asosida tartibli takrorlanishidan hosil boʻluvchi ohang sheʼriy ritmdir” [5, 219]. Erkin Vohidovning sakkiz baytdan iborat mazkur gʻazalida eng kichik ritmik boʻlak hijo boʻlib, asosan, choʻziq hijolar ohangdorlikni yuzaga chiqarishda muhim badiiy-estetik funktsiya bajargan. Lirik subyektning ruhiy manzaralarini ifodalashga xizmat qilgan. Gʻazal **aa, ba, va, ga, da, ya, ja, za** tarzida qofiyalanib, “yosh-haykaltosh-sirdosh-farrosh-osh-bebardosh-fosh-quyosh-bosh” qofiyadosh soʻzlari ritmik jihatdan misrani taʼkidlab koʻrsatishga, gʻazal ohangdorligi va musiqiylikni oshirishga xizmat qilgan. Shuningdek, shoir birinchi boshlanma misrada “yoy” soʻzidagi “y” tovushini tushirib, “yo” tarzida, beshinchi baytning birinchi misrasidagi “lekin” soʻzini “lek” shaklida qoʻllab sheʼrning ritmik tabiatini oshirgan.

Abdulla Oripovning “Ohkim, tushganda koʻz...” gʻazali 6 baytdan iborat boʻlib, ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan.

O h^(o) kim, tush/ gan da koʻz tut/ ding sa lo ming/ ni da rigʻ

Tut ma gil yum/ gan da koʻz bir/ juft ka lo ming/ ni da rigʻ.

-V- — / -V — - / -V — - / -V-

-V- — / -V — - / -V — - / -V-

Foilotun/ foilotun/ foilun

Har bir misrasi 15 hijodan iborat mazkur gʻazalda baytlarning ritmik jihatdan uyushishi choʻziq va qisqa hijolar, ular birikuvidan tashkil topgan rukn, hamda aa, ba, va, ga, da, ya tarzidagi qofiya tizimiga asoslangan. Qofiyaning ritmik, intonatsion vazifasi L.Timofeyev hamda B.Goncharovlar izlanishlarida uchraydi [6, 182]. Gʻazalda “salomingni-kalomingni-maqomingni-maromingni-jomingni-payomingni-nomingni” tarzidagi qofiyalanish tizimi mazmun va ritmning uygʻunlashuviga, oʻquvchi tasavvurida yaxlit birlik hosil qilishiga yordam bergan. Mazkur qofiyadosh soʻzlar tarkibida “m” sonor tovushining raviy boʻlib kelishi, uning “maqom-marom” soʻzlari boshida ham takrorlanishi gʻazal ohangdorligini oshirishga xizmat qilgan.

Ritm barmoq sheʼr tizimida Abdulla Oripov qalamiga mansub “Uchar qushlar” sheʼrida ritmik vositalar asosida sheʼr ritmining taʼkidlanishi, kuchaytirilishini kuzatish mumkin:

Uchar qushlar,/ uchdi-ketdi, 4+4

Qoʻllarimda / pati qoldi. 4+4

Yoshlik ketdi,/ umrning ham 4+4

Sharti ketib,/ parti qoldi. 4+4

Dema, bukun / sevgining ham 4+4

O'zi ketib,/ oti qoldi. 4+4

Lablarimda / u bo'saning 4+4

Hech aynimas / toti qoldi... [7, 321] 4+4

She'rga e'tibor qaratilsa, 8 bo'g'inli 4+4 turoqlanish asosidagi turoq, misra, band – ritmik bo'laklar ritmik pauza bilan ajratilgan. Ayniqsa, bandlar so'ngidagi ritmik pauza ritmik-intonatsion jihatdan tugallik ifodalagan. She'rdagi "pati-parti", "oti-toti" qofiyadosh so'zlari hamda "Sharti ketib, parti qoldi" misrasidagi ichki qofiya ritmik vosita bo'lib, she'r ritmining ham ta'kidlanishiga, ham kuchaytirilishiga xizmat qilgan. She'rda "uchar-uchdi", "ketdi, ketib" fe'llari takrori hamda "qoldi" fe'lining radif tarzida qo'llanishi ohangdorlikni yuzaga chiqargan. She'r davomida 23 bora "i" unlisining takrorlanishi, ayniqsa, qofiyadosh so'zlar oxirida ta'kidlanishi, birinchi misra oxiri "uchdi-ketdi" tarzida yakunlanishi, she'rning oxirgi misrasi ham "i" unlisi va (qoldi...) ko'p nuqta tinish belgisi bilan tugashi lirik "men"ning umr o'tkinchiligi haqidagi falsafiy fikrlari bilan uyg'unlikda ifodalangan

Halima Xudoyberdiyevaning qo'shma vaznda yozilgan quyidagi she'rida ritmik bo'laklar ohangdorlik bilan uyg'unlashib, she'riy nutqning emotsionalligini oshirishga xizmat qilgan:

Kim yog'adur, 4=4

Kim tindi, /Vatan, 3+2=5

Kim xoru/ kim sevindi, /Vatan? 3+4+2=9

Biz yomg'irday 4=4

Yoqqandik / kecha, 3+2=5

Yerlaringda/ ne undi,/ Vatan?! [8, 312] 4+3+2=9

She'rda 4, 5 va 9 bo'g'inli turoqlanishning izchil takrori ritmik-intonatsion jihatdan musiqiylikni oshirishga xizmat qilgan. Shoir vatanparvarlik g'oyalari ifodalangan mazkur she'rda "Vatan" so'zining undalma sifatidagi takroridan ham poetik g'oyasini ifodalashga, ham she'r ohangdorligini oshirishga erishgan. She'rda "kim" so'roq olmoshi va "Biz" kishilik olmoshlarini qo'llash orqali butun xalq qiyofasini gavdalandirgan. So'zlarni misralarga joylashtirishda ham shoironing badiiy mahorati namoyon bo'lgan. V.Mayakovskiyning ta'biri bilan aytganda "Ritm – misraning asosiy kuchi, asosiy energiyasi".

Hozirgi lirikamizda turli band tizimlaridan foydalanib, she'rning g'oyaviy-estetik va badiiy ta'sirchanligini ta'minlash borasida ham ijodkorlarimiz badiiy ta'sirchanlikda band tizimlari xilma-xilligini ta'minlash borasidagi uslubiy izlanishlarini amalga oshirmoqdalar. Masalan, Azam O'ktamning "Kuzda kulgan chechaklar" to'plamidan joy olgan she'rlarida turli band tizimlaridan foydalanilganligini ko'ramiz. Jumladan, "Tilak", "O'ttiz yettinchi yil she'ri", "Ishqing dil dastini..." kabi she'rlarida ikkilik, "Mehring – menga chiroq" she'rida uchlik, "Qo'qon shamoli", "Kuzatish", "Kuz. Ko'roydin. Jim o'tiribman...", "Mashq maydonidagi o'ylar", "Manzara", "Xosiyatmomo armoni", "Qishlog'im ta'rifi" she'rlarida to'rtlik hamda "Adashding", "Yupanch", "Nima deyishni ham bilmayman...", "Kimdir chorlayotir" kabi she'rlarida turli band tizimlarni qo'llab, lirik janrlar imkoniyatlaridan keng foydalanayotganligini uchratamiz. Hozirgi she'riyatimizga xos jihatlardan biri – mazmun talabi bilan bir she'rda turli xil band tizimlaridan foydalanib, band tuzilishida, poetik sintaksisda, ritmik-intonatsiyada yangicha usullarni izlash, shu yo'l bilan fikrning ta'sirchan ifodasiga erishishdir. Ayni shu holatni A'zam O'ktamning "Adashding" she'rida astrofik band tizimlarini qo'llash orqali poetik g'oya kompozitsiya markazini tashkil etganligini kuzatamiz. Adabiyotshunoslik lug'atlaridan ma'lumki, she'r bandlaridagi misralar soni turlicha bo'lgan she'rlar astrofik she'rlar deyiladi. "Mumtoz she'riyatda izometriyaga, jumladan, she'riy asarda bandlarning bir xil (misra soni, o'lchovi, qofiyalanish tartibi) bo'lishiga qat'iy amal qilingan bo'lsa, keyingi davr she'riyatida (G'arbda romantizm davridan, o'zbek she'riyatida XX asrdan) bu qoidadan chekinish odatiy holga aylandi. Natijada astrofik (bandlaridagi misralar soni turlicha) she'rlar, getrometrik (o'lchovi turlicha misralardan tarkib topgan bandli) she'rlar ham ommalashdi" [9, 62]. Demak, zamonaviy she'riyatga xos jihatlardan biri – mazmun talabi bilan bir she'rda turli xil band tizimlaridan foydalanib, band tuzilishida, poetik sintaksisda, ritmik-intonatsiyada yangicha usullarni izlash, shu yo'l bilan fikrning ta'sirchan ifodasiga erishishdir. A'zam O'ktamning "Adashding"

ADABIYOTSHUNOSLIK

astrofik she'rida she'r ritmik qurilishi to'qqiz satrli band tizimidan ikki satrli band tizimigacha aralash holda qo'llanilib, jamiyatimizdagi shaxslarning ma'naviy fojeasi ifodalangan:

Jim qoldim /insonga /hurmatim bois,
Do'st emas, /dushmanning /ishini qilding:
"Go'l bo'lmasa, /Farg'onaning xalqi,
Qo'lda kanal /qazadimi" /deb kuldung.
Indamadim./
Birdan /o'zimning ham
ichim achib ketdi /bechoralarga.
Kulgi bo'laylik deb /ishlashmagan-ku,
Bilmaysanmi /g'o'za bilan /suv qadrini? [10, 5]

She'rda qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini sug'orishda asosiy o'rin tutuvchi Katta Farg'ona kanalining qurilishi bilan bog'liq voqealarga, xalqimiz matonatiga bepisand qarab, kulgi ostiga olgan shaxs qiyofasi fosh qilingan. Ma'lumki, 1939- yilning avgust oyidan boshlab 45 kun davomida xalq xashar yo'li bilan bunyod etgan Katta Farg'ona kanali 270 kilometr uzunlikni tashkil etadi. Bu kanalning qurilishi ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda muhim ahamiyatga ega. Shoir esa oramizda yaqin o'tmishimizni, ma'naviy qadriyatlarimizni, eng asosiysi, o'zligini unutayotgan insonlar borligidan o'kinadi. She'rning keyingi distix bandida lirik qahramon "kir so'zlari bilan" o'zi ichib turgan suvni loyqalatayotgan, hayot manbai bo'lgan suvning qadriga yetmaydigan tuban, oqibatsiz kimsalarga qarata quyidagi satrlarni bitgan:

Ichib yuribsan-ku/ shu suvni/ sen ham,
loyqalatma uni/ kir so'zlar bilan.

Shoir "suvni loyqalatish" orqali xalqimizning o'tmishini "loyqalatayotgan"larga "Seniki uzrli – bo'lsang ko'ru kar" deya istehzoli xulosa qiladi. She'rni band tuzilishiga ko'ra shartli ravishda besh qismga ajratish mumkin. Dastlabki nona (to'qqizlik) bandni voqealar boshlanmasi, ikkinchi beshlik bandni tezis, uchinchi distix va to'rtinchi terset bandni antitezis, oxirgi nona (to'qqizlik) bandni xulosa deb atash mumkin.

So'nggi nona band:
Kel, /so'kib o'tirmayin/ seni,
o'zimmikisan, /baribir /o'zimmikisan.
Kayfi oshdi, /deya qolaman,
bir adashdi, /deya qolay, /yaxshisi.
Baribir /ko'nglim g'ash
go'yo xotinim
tashlab yuborgandek /beparvo,
chiqindiga qo'shib,
otamning rasmin...

tarzdagi xulosa bilan yakunlanadi. Badda lirik qahramon "O'zimmikisan, baribir o'zimmikisan" deya millatdoshining ayanhli ahvolidan qayg'uradi. Uni "adashgan"likka yo'yadi. O'zligini tobora tubanlashib borayotgan o'zgaga qarshi qo'yadi. She'rda ota-bobolarining hayoti, o'tmishi, avlodlarga qoldirgan merosiga loqayd, o'zligini unutgan vatandoshining so'zlaridan qalbi yaralangan shaxs kechinmalari ifodalanadi. She'rning g'oyaviy-estetik ta'sirchanligi to'rtinchi va beshinchi bandlarda o'z ifodasini topadi. Bundan tashqari, shoir poetik g'oyasini ifodalashda hamda she'rning ohangdorligini oshirishda "i" va "o" tovushlari takroridan foydalangan. She'rdagi "i" tovushi ingrayotgan, "o" tovushi esa oh urayotgan lirik qahramonning mungli qiyofasini ifodalayotgandek bo'ladi. Ko'rinadiki, bandlardagi i, o tovushlari takroridan hosil bo'lgan o'ziga xos ritmika, mazmundagi g'oya she'rning ta'sirchanligini ta'min etgan. Shu o'rinda Lev Ozerovning fikrlarini keltirish o'rinli: "She'rdagi so'zga fikr va tuyg'u o'raydigan qog'oz deb qaramaslik kerak. She'rdagi fikr va tuyg'u so'z orqali takomillashib, o'quvchi qalbiga ohang ritm, qofiya, musiqiylik, tovushlar jilosi bilan uyg'unlikda yetib boradi" [11, 163].

XULOSA

Xulosa shuki, she'r ritmi ritmik bo'laklar va ritmik vositalar asosida musiqiylik va ohangdorlikni, emotsionallikni yuzaga keltiradi. She'riy nutqning o'quvchi qalbiga yetib borishida ritm, qofiya, tovushlar jilosi she'rdagi fikr va tuyg'u bilan uyg'unlashadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Квятковский А. Поэтический словарь. - Москва: СЭ., 1966. - С.254. (Kvyatkovsky A. Poetichesky dictionary. - Moscow: SE., 1966. - P.254.)
2. Литература древнего Востока. - Москва, 1971. - С.18. (Literatura drevnego Vostoka. - Moscow, 1971. - P.18.)
3. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. -Тошкент: Фан, 1985. - Б.211. (Toychiev U. Aruz system in Uzbek poetry. -Tashkent: Science, 1985. - B.211)
4. Воҳидов Эркин. Тўла асарлар тўплами. 3-жилд. - Тошкент: Шарқ, 2016. - Б.45(Erkin Vahidov. A complete collection of works. Volume 3. - Tashkent: Sharq, 2016. - P.45)
5. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. - Тошкент: Ношир, 2019. - Б.219.(Kuronov D. Basics of literary theory. - Tashkent: Publisher, 2019. - P.219)
6. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. - С.334; Гончаров Б.П. Звуковая организация стиха и проблемы рифмы. - 1990, 1997, - С.182 (Timofeev L.I. Fundamental theory of literature. - S.334; Goncharov B.P. Zvukovaya organization stikha i problemy rifmy. - 1990, 1997, - S.182)
7. Орипов Абдулла. Танланган асарлар. - Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. - Б. 321. (Abdulla Oripov. Selected works. - Toshket: Literature and art publishing house named after G.Gulam, 2001. - B. 321)
8. Худойбердиева Ҳалима. Йўлдадирман. - Тошкент: Шарқ, 2006. - Б.312. (Halima Khudoyberdieva. I'm on my way. - Tashkent: Sharq, 2006. - B.312)
9. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. - Тошкент: Akademnashr, 2013.- Б. 62. (Kuronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Dictionary of literary studies. - Tashkent: Akademnashr, 2013.-B. 62.)
10. Аъзам Ўктам. Кузда кулган чечаклар. - Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. - Б.5. (Azam Oktam. Laughing smallpox in autumn. - Tashkent: Publishing house of literature and art named after G. Gulom, 1990. - B.5.)
11. Озеров Л. Работа поэта. - Москва: Сов.писатель, 1963. - С.163. (Ozerov L. Rabota is a poet. - Moscow: Sov. pisatel, 1963. - P.163.)